XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-011-2-42-K/24 Buxoro shahar

Buxoro shahrining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qaroriga, Viloyat iqtisodyot va moliya boshqarmasining xatiga hamda “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Xalq deputatlari Buxoro viloyat Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-026-2-0-K/24-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” Qonuniga muvofiq, Buxoro shahar mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlari 229 072,464 mln.so‘m, xarajatlari 229 072,464 mln.so‘m prognoz qilinganligi, shuningdek Buxoro shahar mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 2 214,0 mln.so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Buxoro mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilovaga** muvofiq, 2025-yil uchun budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari prognozi **2-ilovaga** muvofiq, Buxoro shahar mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Buxoro shahar mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun 2 914,2 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Buxoro shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Yaxyoyevga, shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Aminov), shahar soliq inspeksiyasi (A.G‘afurov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-

ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ma’murov) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari X.Yaxyoyev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi  TURSUNOV QURBON IBRAGIMOVICH

Xalq deputatlari Buxoro shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-2-42-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Buxoro shahar mahalliy budjeti daromadlarining
2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

mln.so‘mda

№	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Aylanmadan olinadigan soliq	67 023,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	
	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan daromad solig‘i	14 450,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aksiz solig‘i, jami	
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	25 989,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	57 889,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	36 040,55
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	21 686,914
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	471,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 873,0
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to‘lovi	2 650,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Yig‘imlar	
17	Xususiylashtirish	
18	Boshqalar	
JAMI		**229 072,464**

Xalq deputatlari Buxoro shahar
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-2-42-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun Buxoro shahar mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

mln.so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
	XARAJATLAR-JAMI	**229 072,464**
1	Shahar maktabgacha va maktab ta’lim muassasalari xarajatlari	49 042,977
	Shundan	
	"*Mening maktabim"*	2 708,415
2	Madaniyat muasasalari xarajatlari	30 316,507
3	Sport muassasalari xarajatlari	7 305,324
4	Yoshlar agentligi	7 751,0
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi xarajatlari	2 101,0
6	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi xarajatlari	3 271,0
7	Soliq inspeksyasi xarajatlari	
8	Iqtisodiyot xarajatlari	68 132,668
	shu jumladan::	
	Obodonlashtirish boshqarmasi xarajatlari	66 361,668
	Veterinariya xarajatlari	1 771,0
9	Davlat boshqaruv organlari xarajatlari	61 063,988
	Shundan	
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	2 990,0
10	Tashabbusli budjet tadbirlari jamg‘armasi	40 842,068
11	Zaxira jamg‘armasi mablag‘lari	2 914,2
12	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajati	415,0
13	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	77,7
14	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	88,0

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-011-2-42-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Buxoro shahar mahalliy byudjetiga 2025-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

№	Soliqlar va to‘lovlar nomi	2025-yilda ajratma me’yorlari			
		Mahalliy byudjetga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0%	0%	100%	100%
2	Foyda solig‘i	0%	0%	100%	100%
3	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari) aksiz solig‘i	0%	0%	100%	100%
4	Pivoga aksiz solig‘i	0%	0%	100%	100%
5	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	0%	0%	100%	100%
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	0%	50%	100%	50%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	0%	89%	100%	11%
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%	0%	0%
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100%	100%	0%	0%
10	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar	0%	100%	100%	0%
11	Aylanmadan soliq	100%		0%	
12	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100%		0%	

13	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	100%	0%
14	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq	100%	0%
15	Davlat Mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100%	0%
16	Davlat boji	0%	100%
17	Jarimalar	0%	100%
18	Yig‘imlar	0%	100%

Izoh: 1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111302, 3111303, 3111304, 3111305, 3111104, 3111106, 3111300, 3111301, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq Buxoro shahar mahalliy budjetiga yo‘naltiriladi;

2. Jarimalar (3 430 103), davlat boji (3 422 103) va yig‘imlar (3 422 203) bo‘yicha tushumlar to‘liq Buxoro shahar mahalliy bdjetiga yo‘naltiriladi;

3. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar (3510300) hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari (3510810) Buxoro shahar mahalliy budjeti hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

4. Boshqa tushumlar alohida Hukumat qarorlari bilan belgilangan me’yorlarga asosan taqsimlanadi.